# Termiz shahrida oʻquvchilar oʻrtasida fan olimpiadasi oʻtkazildi



Termiz shahrida oʻquvchilar oʻrtasida fan olimpiadasi oʻtkazildi

Bugun, 26-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabida Termiz shahar hokimligi, shahar maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi hamda "VESTMINSTER " oʻquv markazi hamkorligida 3-4 sinf oʻquvchilari oʻrtasida matematika fanidan olimpiada boʻlib oʻtdi.

Fan olimpiadasida viloyatdagi umumiy oʻrta taʼlim maktablaridan 300 dan ortiq oʻquvchilar ishtirok etishdi.

Ushbu olimpiadadan koʻzlangan maqsad oʻquvchi yoshlarni oʻz bilim va koʻnikmalarini yana-da mustahkamlash, iqtidorli yoshlarni roʻyobga chiqarish hamda Prezident maktabi kirish imtihonlariga tayyorgarlik boʻyicha bilimlarini yana bir bor sinovdan oʻtkazishdan iboratdir.

Yakunda olimpiadada muvaffaqiyatli ishtirok etgan oʻquvchilarga sertifikatlar

Image not found or type unknown

topshirildi. G‘oliblarni taqdirlash marosimi esa kelgusi haftada o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ularga shahar hokimligining qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshiriladi.



Image not found or type unknown





Image not found or type unknown



Image not found or type unknown